



NUTQ NUQSONLI BOLALARDA EMOTSIONAL HOLAT VA MULOQOT FAOLLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Sultanova Jasmina Quatbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Maktangacha va boshlang'ich talim Maxsus pedagogika: Logopediya 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199548>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-may 2026 yil
Ma'qullandi: 12-may 2026 yil
Nashr qilindi: 14-may 2026 yil

KEYWORDS

Nutq nuqsoni, emotsional holat, muloqot faolligi, kommunikativ kompetensiya, logopedik yordam, dialogik nutq, rolli o'yinlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat va muloqot faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy-pedagogik va logopedik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada emotsional barqarorlik, muloqot motivatsiyasi, logopedik yordam, o'yinli metodlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik masalalari yoritiladi.

Bola nutqi uning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Nutq orqali bola o'z fikrini bildiradi, ehtiyojlarini ifodalaydi, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatga kirishadi, atrof-muhitni anglaydi va ijtimoiy tajriba orttiradi. Shu sababli nutq rivojidadagi har qanday buzilish bolaning umumiy rivojlanishiga, ta'lim jarayonidagi faolligiga va psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutq nuqsonli bolalarda tovush talaffuzining buzilishi, fonematik eshituvning yetarli rivojlanmaganligi, lug'at boyligining kamligi, grammatik tuzilmaning sust shakllanishi, nutq ravonligining buzilishi yoki umumiy nutqiy rivojlanmaganlik holatlari kuzatiladi. Bunday nuqsonlar bolaning o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalashiga to'sqinlik qiladi. Natijada bola muloqotda noqulaylik sezishi, tengdoshlari bilan erkin suhbatga kirisha olmasligi, o'z nutqidan uyalishi yoki gapirishdan qochishi mumkin. Nutqiy nuqsonlar bolaning muloqot jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatib, uning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishini qiyinlashtirishi ta'kidlanadi. Bunday bolalarda o'z fikrini tushunarli bayon qilishdagi qiyinchiliklar ijtimoiy muhitdan chetlashish, muloqotdan qochish va psixologik noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin [1]. Shu jihatdan nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat va muloqot faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish logopediya, maxsus pedagogika va bolalar psixologiyasi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Emotsional holat – bolaning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyati, o'ziga va atrofdagilarga munosabati, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka bo'lgan reaksiyasi bilan bog'liq psixologik jarayondir. Bolalarda quvonch, qiziqish, qo'rquv, xavotir, uyatchanlik, jahldorlik, tortinchoqlik, ishonch yoki ishonchsizlik kabi emotsional holatlar tez-tez kuzatiladi. Sog'lom emotsional holat bolaning muloqotga kirishishi, o'z fikrini erkin ifodalashi, savollarga javob berishi, yangi faoliyatga qiziqishi va tengdoshlari bilan munosabat o'rnatishiga yordam beradi. Aksincha, xavotir, qo'rquv, uyat yoki ishonchsizlik kuchli bo'lsa, bola muloqotdan chetlashishi, gapirishga jur'at qilmasligi, hatto bilgan so'zlarini ham aytmay qo'yishi mumkin. Nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat ko'pincha nutqiy qiyinchiliklar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Bola biror tovushni noto'g'ri aytsa, so'zlarni chalkashtirsa yoki gapini ravon davom ettira olmasa, atrofdagilarning kulgisi, tanqidi yoki befarqligi uning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Vaqt o'tishi bilan bunday bola o'z nutqiga ishonmay qoladi, suhbatda passivlashadi va muloqotdan qochishga moyil bo'ladi. Muloqot faolligi bolaning boshqalar bilan aloqa o'rnatishga intilishi, savol berishi, javob qaytarishi, suhbatni davom ettirishi, o'z fikrini aytishi, guruh faoliyatida qatnashishi va ijtimoiy vaziyatlarda nutqdan foydalanish darajasini bildiradi. Muloqot faolligi yuqori bo'lgan bola o'z fikrini bildirishga harakat qiladi, suhbatga qiziqadi, tengdoshlari bilan o'ynaydi, savollarga javob beradi, yangi so'zlarni qo'llashga urinadi. Muloqot faolligi past bo'lgan bola esa ko'pincha sukut saqlaydi, savollarga qisqa javob beradi, o'yinlarda chetda turadi, kattalar yoki tengdoshlari bilan suhbat boshlashda qiynaladi. Kommunikativ kompetensiya muloqot jarayonida til vositalaridan to'g'ri foydalanish, nutqiy va nonutqiy vositalar orqali fikrni aniq ifodalash, suhbatdoshni tushunish va ijtimoiy vaziyatga mos muloqotga kirisha olish qobiliyati sifatida izohlanadi [2]. Demak, muloqot faolligi faqat ko'p gapirish emas, balki nutqni maqsadga muvofiq, vaziyatga mos va ijtimoiy jihatdan to'g'ri qo'llay olish bilan belgilanadi. Nutq nuqsonli bolalarda muloqot faolligining pasayishi ko'pincha ularning nutqiy imkoniyati cheklanganligi, o'z nutqidan qoniqmasligi, tanqid yoki kulgidan qo'rqishi bilan bog'liq bo'ladi.

Nutq nuqsonlari bolaning ichki ruhiy holatiga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi. Eng avvalo, bola o'z nutqidagi farqni sezadi. U tengdoshlari so'zlarni ravon va to'g'ri aytayotganini, o'zi esa ayrim tovushlarni buzib talaffuz qilayotganini yoki gapini to'liq bayon qila olmayotganini his qiladi. Bu holat unda o'ziga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, atrofdagilarning munosabati bolaning emotsional holatini kuchli belgilaydi. Agar bola nutqidagi xato uchun kulgiga qolsa, tez-tez tanqid qilinsa yoki gapini bo'lishsa, u muloqotda o'zini xavfsiz his qilmaydi. Natijada bola kamroq gapirishga, savollarga qisqa javob berishga yoki butunlay sukut saqlashga harakat qiladi.

Uchinchidan, nutq nuqsoni bolaning jamoaga qo'shilishiga ta'sir ko'rsatadi. Nutqi tushunarsiz bo'lgan bola o'yinlarda o'z fikrini tushuntirishda qiynaladi, tengdoshlari bilan kelisha olmaydi, rolli o'yinlarda faol qatnashmaydi. Bu esa ijtimoiy chetlashish va yolg'izlik hissini kuchaytirishi mumkin.

To'rtinchidan, nutqdagi muammo bolaning o'quv faoliyatida ham noqulaylik tug'diradi. Tarbiyachi yoki o'qituvchi savol berganda bola javobni bilsa ham, nutqiy xatosidan qo'rqib javob bermasligi mumkin. Bu holat uning bilimni namoyon qilishiga to'sqinlik qiladi.

Nutqiy qiyinchiliklar faqat nutq bilan cheklanib qolmay, psixologik omillar bilan ham bog'liqdir: o'z nutqidan qoniqmaslik, tengdoshlar tanqidi yoki kulgisidan qo'rqish bolada ishonchsizlikni kuchaytiradi, bu esa muloqot faolligining pasayishiga olib keladi [3].

Bolaning emotsional holati muloqot faolligini belgilovchi muhim omildir. Agar bola o'zini xotirjam, qo'llab-quvvatlangan va xavfsiz his qilsa, u muloqotga osonroq kirishadi. Aksincha, bola qo'rqsa, uyalca, xavotirlansa yoki o'z nutqidan norozi bo'lsa, muloqotdan chetlashadi. Ijroiy emotsional holat quyidagi natijalarni beradi:

- bola suhbatga qiziqadi;
- savollarga faol javob beradi;
- xato qilishdan qo'rqmaydi;
- yangi so'zlarni ishlatishga harakat qiladi;
- tengdoshlari bilan o'yinlarda qatnashadi;

logopedik mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi.

Salbiy emotsional holat esa quyidagi holatlarga sabab bo'ladi:

bola gapirishdan tortinadi;

savollarga "ha", "yo'q" kabi qisqa javoblar beradi;

jamoada oldida gapirishdan qochadi;

yangi topshiriqlarni bajarishga qo'rqadi;

o'z nutqidagi xatoni kuchli his qiladi;

tengdoshlaridan uzoqlashadi.

Shu sababli nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda logopedik korreksiya faqat tovush, so'z yoki gap ustida olib borilmasligi kerak. Bola ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, unda muloqotga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirilishi zarur.

Nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat va muloqot faolligi o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama xarakterga ega. Ya'ni emotsional holat muloqot faolligiga ta'sir qiladi, muloqotdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik esa emotsional holatni o'zgartiradi. Agar bola muloqotda muvaffaqiyatga erishsa, masalan, so'zni to'g'ri aytsa, suhbatdosh uni tushunsa, tengdoshlari uni o'yinga qabul qilsa, unda quvonch va ishonch paydo bo'ladi. Bu esa keyingi muloqotga rag'bat beradi. Aksincha, bola gapirganda uni tushunishmasa, ustidan kulishsa yoki doim tuzatishsa, unda salbiy emotsional tajriba shakllanadi. Bu esa muloqotdan qochishga olib keladi. Demak, muloqot faolligi bolaning emotsional holatini mustahkamlashi yoki zaiflashtirishi mumkin. Shuning uchun logopedik mashg'ulotlarda bolaga kichik muvaffaqiyatlar yaratish, uni maqtash, xatoni yumshoq tuzatish va gapirishga bo'lgan ishonchni oshirish juda muhimdir.

Nutq nuqsonli bolalarda logopedik yordamning asosiy maqsadi nutq kamchiliklarini bartaraf etish bilan birga, bolaning muloqotga bo'lgan ishonchini shakllantirishdir. Logoped bolaning emotsional holatini hisobga olmasdan faqat mexanik mashqlar bilan cheklansa, kutilgan natija to'liq bo'lmasligi mumkin. Logopedik yordamda quyidagi psixologik tamoyillar muhim:

birinchidan, bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

ikkinchidan, xatoni keskin tanqid qilmasdan, to'g'ri variantni namuna sifatida berish;

uchinchidan, bolani boshqalar bilan salbiy taqqoslamaslik;

to'rtinchidan, har bir kichik yutuqni rag'batlantirish;

beshinchidan, mashg'ulotni qiziqarli va emotsional qulay tashkil etish;

oltinchidan, bolaning mustaqil fikr bildirishiga imkon yaratish.

Logopedik ishlar nutqiy nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, tovush talaffuzini tuzatish, fonematik eshituvni rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish va grammatik tuzilmani shakllantirishga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga oladi [4]. Ammo bu mashqlar bolaning emotsional holati bilan uyg'un olib borilgandagina muloqot faolligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'yin bolalar uchun eng tabiiy faoliyat turidir. Ayniqsa nutq nuqsonli bolalarda o'yin orqali muloqotga kirishish osonroq kechadi. Chunki o'yinda bola rasmiy savol-javob vaziyatida emas, balki qiziqarli faoliyat ichida gapiradi. Bu esa uning xavotirini kamaytiradi. Didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va interfaol metodlar nutq nuqsonli bolalarda muloqot faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Rolli o'yinlar orqali bolalar kundalik hayotdagi muloqot vaziyatlarini modellashtiradi, suhbatni davom ettirish, so'z tanlash va nutqni vaziyatga moslashtirish ko'nikmalarini egallaydi [5]. Masalan, "Do'kon"

o'yinida bola xaridor yoki sotuvchi rolini bajaradi. U "Menga non bering", "Mana, oling", "Rahmat" kabi iboralarni ishlatadi. Bu jarayonda bola muloqot vaziyatini o'rganadi va nutqiy faolligi oshadi. "Shifokor" o'yinida bola savol berish va javob qaytarishga o'rganadi: "Qayeringiz og'riyapti?", "Tomog'im og'riyapti", "Dori iching". Bunday o'yinlar bolaning nutqiy tajribasini boyitadi. "Mehmon kutish" o'yinida esa salomlashish, taklif qilish, minnatdorchilik bildirish, xayrlashish kabi ijtimoiy nutq shakllari mustahkamlanadi. O'yin faoliyati bolaning emotsional holatiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Bola o'zini erkin his qiladi, xato qilishdan kamroq qo'rqadi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Natijada muloqot faolligi tabiiy ravishda oshadi.

Nutq nuqsonli bolalarda muloqotni faqat og'zaki nutq bilan cheklab qo'yish to'g'ri emas. Chunki ayrim bolalar fikrini so'z bilan to'liq ifodalashda qiynaladi. Bunday holatda mimika, imo-ishora, tana harakati, intonatsiya, rasm, predmet yoki vizual belgilar yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Nonverbal muloqot bolaning o'z fikrini bildirish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, bola biror predmetni ko'rsatishi, boshini qimirlatib rozilik yoki norozilik bildirishi, yuz ifodasi orqali his-tuyg'usini namoyon qilishi mumkin. Logoped bu vositalarni og'zaki nutq bilan bog'lab boradi. Mimika, imo-ishora, intonatsiya va tana harakatlari orqali fikrni ifodalash bolalarning muloqot imkoniyatlarini kengaytirishi, nutqiy nuqson mavjud bo'lgan sharoitda ham samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlanadi [6]. Bu jihat bolaning emotsional holati uchun ham muhim. Chunki bola so'z bilan ayta olmagan fikrini boshqa vosita orqali bildira olsa, unda muloqotga nisbatan ishonch paydo bo'ladi.

Nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat va muloqot faolligini rivojlantirishda mutaxassislar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Logoped nutqiy kamchiliklar ustida ishlaydi, psixolog bolaning emotsional holatini qo'llab-quvvatlaydi, pedagog guruh yoki sinfdagi muloqot muhitini yaratadi, ota-ona esa uy sharoitida bolani faol suhbatga jalb qiladi.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi tavsiyalar muhim:

- bola gapirayotganda uning so'zini bo'lmaslik;
- xato talaffuz uchun koyimaslik;
- bolaga javob berish uchun vaqt berish;
- har kuni suhbatlashish;
- bolaning kichik yutug'ini ham maqtash;
- ertak, rasm va o'yinlar orqali nutqni rag'batlantirish;
- bolani tengdoshlari bilan muloqotga undash;
- oilada mehrlil va xotirjam muhit yaratish.

Ota-onalarning uy sharoitida bola bilan muloqotga e'tibor qaratishi, uni faol suhbatga jalb etishi logopedik ishlarning samaradorligini oshiradi. Hamkorlik asosida olib borilgan ishlar bolada muloqotga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va kommunikativ kompetensiyaning barqaror shakllanishiga zamin yaratadi [7]. Nutq nuqsonli bolalar uchun inklyuziv muhit muhim ahamiyatga ega. Bunday muhitda bola sog'lom tengdoshlari bilan birga faoliyat yuritadi, ulardan nutqiy namuna oladi, o'yinlarda qatnashadi va ijtimoiy tajriba orttiradi. Biroq bu jarayon o'z-o'zidan samarali bo'lavermaydi. Pedagog va logoped bolaning nutqiy imkoniyatini hisobga olib, unga qulay muloqot sharoiti yaratishi kerak. Inklyuziv ta'lim sharoitida logoped nafaqat nutq buzilishlarini tuzatadi, balki bolaning ijtimoiy faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlashga ham xizmat qiladi [8].

Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

bola guruh faoliyatiga bosqichma-bosqich jalb qilinadi;
tengdoshlar bilan juftlikda ishlash tashkil etiladi;
rolli va didaktik o'yinlar qo'llaniladi;
muloqotga ijobiy rag'bat beriladi;
bola tanqid qilinmaydi, qo'llab-quvvatlanadi;
nutqiy topshiriqlar bolaning imkoniyatiga mos tanlanadi.

Qulay inklyuziv muhit nutq nuqsonli bolaning emotsional barqarorligini oshiradi va muloqot faolligini kuchaytiradi.

Nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat va muloqot faolligini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. "Men haqimda gapiraman" mashqi

Bola o'zi haqida qisqa gaplar aytadi: "Mening ismim...", "Men ...ni yaxshi ko'raman", "Mening sevimli o'yinchog'im...". Bu mashq o'zini tanishtirish va erkin gapirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

2. "Kayfiyat kartochkalari"

Bolaga turli emotsiyalar aks etgan rasmlar ko'rsatiladi: quvonch, xafa bo'lish, qo'rquv, hayrat, jahldorlik. Bola rasmni tanlaydi va "Men bugun xursandman", "Men biroz xafaman" kabi gaplar tuzadi. Bu mashq emotsiyani anglash va ifodalashga yordam beradi.

3. "Do'stinga savol beraman"

Bola tengdoshiga oddiy savol beradi: "Sening isming nima?", "Sen nimani yoqtirasan?", "Qaysi o'yinni o'ynaymiz?" Bu mashq dialogik nutq va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

4. "Rasm asosida suhbat"

Bola rasmga qarab savollarga javob beradi, keyin o'zi savol tuzadi. Bu usul muloqotda faollikni kuchaytiradi.

5. "Maqtov doirasi"

Guruhdagi bolalar bir-biriga ijobiy gap aytadi: "Sen yaxshi o'ynading", "Sening rasming chiroyli", "Sen menga yordam berding". Bu mashq bolada ijobiy emotsional muhit yaratadi.

6. "Rolli vaziyat"

"Do'kon", "Bog'cha", "Mehmon", "Shifokor", "Oila" kabi vaziyatlar modellashtiriladi. Bola o'z rolga mos gapiradi. Bu usul nutqiy faollik va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi.

Nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat va muloqot faolligi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ijobiy emotsional holat bolaning muloqotga kirishishini osonlashtiradi, nutqiy faolligini kuchaytiradi va logopedik mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi. Salbiy emotsional holat esa bola nutqiy imkoniyatlaridan foydalanishini cheklaydi, gapirishdan qochishga, savollarga qisqa javob berishga va tengdoshlardan uzoqlashishga sabab bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nutqiy nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyaning yetarli shakllanmaganligi muloqotdan qochish, ishonchsizlik va psixologik noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Interfaol metodlar, dialogik va monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar, rolli va didaktik o'yinlar esa kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi [9]. Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash kerakki, nutq nuqsonli bola bilan ishlashda faqat tovushni to'g'rilash yetarli emas. Bola o'zini erkin, xavfsiz va qadrlangan his qilishi kerak. Shundagina u nutqiy mashqlarda faol qatnashadi va o'z fikrini bildirishga intiladi.

Nutq nuqsonli bolalarda emotsional holat va muloqot faolligi o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjud. Nutqdagi kamchiliklar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchiga, tengdoshlari bilan munosabatiga, jamoa oldida gapirishiga va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Bola nutqidagi qiyinchilik sababli uyatchanlik, xavotir, ishonchsizlik va muloqotdan qochish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Ijobiy emotsional muhit esa bolaning muloqotga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Logoped, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorlikda ishlaganda bola o'z nutqidagi kamchilikdan qo'rqmasdan, asta-sekin faol muloqotga kirisha boshlaydi. Didaktik va rolli o'yinlar, dialogik mashg'ulotlar, nonverbal muloqot vositalari, emotsiyalarni ifodalash mashqlari va rag'batlantirish usullari bu jarayonda samarali vosita hisoblanadi. Demak, nutq nuqsonli bolalarda muloqot faolligini oshirish uchun ularning emotsional holatini barqarorlashtirish, o'ziga ishonchini kuchaytirish va qulay kommunikativ muhit yaratish zarur. Logopedik ish nutqni tuzatish bilan birga, bolaning shaxsiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mamatqulova D. Logopediya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
- 2.Qodirova F. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019.
- 3.Safarov Sh. Nutq madaniyati va tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
- 4.Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
- 5.Vygotskiy L. S. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 2005.
- 6.Levina R. E. Osnovy teorii i praktiki logopedii. – Moskva: Prosveshchenie, 2010.
- 7.Jukova N. S. Razvitiye kommunikativnyx navykov u detey s rechevymi narusheniyami. – Moskva: Akademiya, 2012.
- 8.Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018.

